ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

MUMTOZ MUSIQA VOSITASIDA BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Muhammatova Ozoda Muzrabovna.
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Musiqa ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi.
ozodamuhammatova@gmail.com

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS THROUGH CLASSICAL MUSIC.

Muhammatova Ozoda Muzrabovna.
Senior lecturer of the Department of "Music Education" of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute.
ozodamuhammatova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada milliy mumtoz qo'shiqchilik vositasida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish masalalari, milliy musiqa san'atining tarbiyaviy va ijodiy jihatlarini ochib berilib, uning talabalarda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, maqolada an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati orqali talabalarning estetik didini shakllantirish, sahnaviy mahoratini oshirish hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari bilan birga ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni bayon etilgan.*
Kalit so'zlar: *milliy mumtoz qo'shiqlar, talabalar, kasbiy tayyorgarlik, qo'shiqchilik san'ati, ashula, musiqiy meros, tarbiyaviy vosita.*

Talabalarni yuqori saviyada tayyorlash uchun ularning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy ko'nikmalari ham shakllantirilishi lozim. Bu jarayonda milliy mumtoz qo'shiqchilik vositasida talabalarning ijrochilik mahoratini oshirish, ularni yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, milliy mumtoz qo'shiqchilik orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligini o'rganish muhimdir.

O'zbek xalq musiqa merosiga mansub turli janrlarda yaratilgan an'anaviy xonandalik yo'nalishidagi namunalarni o'rganish, g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki ularda Vatan, tabiat, insoniy fazilatlardan halollik, mehnatsevarlik, ona tabiatga, insonlarga mehr-muhabbat, tinchlik, adolat Vatan ravnaqi uchun o'zini safarbar etish g'oyalari tarannum etiladi. Mana shunday badiiy, yetuk qiymatga ega san'at namunalari yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa oliy pedagogik ta'lim musiqa ta'limi yo'nalishidagi bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari va ularga bilim berib kelayotgan professor-o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek xalqining musiqa merosida an'anaviy xonandalik san'ati salmoqli o'rin egallaydi. Musiqa san'atini rivojlantirishda milliy mumtoz qo'shiqlar eng muhim asos bo'lishi bilan birga shaxs, xususan, o'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarni badiiy-estetik, madaniy, ma'naviy tarbiyasida ham yuksak ta'sirchanlik kasb etadi.

Yurtimizda milliy mumtoz qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan yuksak e'tibor Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatlarda ham ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. 2017-yil 17-noyabrda "Maqom san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni [1] so'zimizni isbotlaydi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslari va darsdan tashqari faoliyatda aniq maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni o'zbek maqom tarkibiga kiruvchi ashulalar, cholg'u ijrochiligi namunalari bilan yaqindan tanishtirib borish, milliy mumtoz qo'shiqchilik san'atini o'rgatish orqali xalq musiqa merosiga hurmat, qiziqish, ularni mehr qo'yib o'rganish, kelgusida ushbu san'atni davom ettiradigan darajada ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishish mumkin.

Shuni e'tirof etish joizki, milliy mumtoz qo'shiqchilik negizida xalq og'zaki ijodi yoki mumtoz she'riyat namunalari (aksariyat g'azal janriga oid she'rlar) ga xos adabiy matn yotadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy bastakorlarning ham ko'pchiligi xalq qo'shiqlarini, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari ohanglaridan ijodiy ilhomlanib yangi kuy-qo'shiqlar yaratib kelishmoqda.

Ta'lim jarayonida milliy mumtoz qo'shiqchilarni bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan samarali o'zlashtirilishi ko'p jihatdan ushbu yo'nalishdagi faoliyatni qanday tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining yuksak badiiy qiymatga ega asar namunalarini o'zlashtirish darajalari, ularni maktab faoliyati davomida o'quvchilarni asar badiiy qiymatini baholay olish, ularni farqlash, she'riy matnda ifodalangan g'oyaviy-badiiy mazmunni anglashlari uchun zarur bilim va tushunchalarni berish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Umumta'lim maktablarida milliy mumtoz qo'shiqchilik namunalarini to'laligicha o'rgatish, o'quvchilar tomonidan ijro etish shartli vazifa qilib qo'yilmaydi. Balki shunga erishish kerakki, milliy mumtoz qo'shiqchilik yo'nalishi namunalarini musiqaning mukammal ijod namunasi ekanligini bilsin, badiiy saviyasi past va yuqori iste'dod mahsuli bo'lgan asarlarni farqiga borish, qo'shiq, yalla, lapar yoki zamonaviy estrada qo'shiqlariga nisbatan mumtoz kuy-qo'shiqlarni ancha "jiddiy", "murakkab" shu bilan birga ijrochilikda ma'lum tajriba va mahorat, iste'dodni talab etishini his etish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini taqazo etadi. Shuning uchun ham maktab musiqa darslarida tavsiya etilgan mumtoz namunalarni asosan tinglash, tahlil qilish, ijro uslublariga, har bir ijrochining mahorati, ovozni ishlatish, ohangdorlik, o'ziga xos nola, qochirim kabi musiqiy bezaklarning o'z o'rnida qo'llanishi, usullar (ritm) ga e'tiborlarini qaratish asosiy o'rin tutadi.

O'zbek milliy mumtoz musiqalari azaldan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkabu mukammalligi va beqiyos an'anaviy odatlarni o'zida mujassam etganligi bilan boshqa dunyo xalqlar musiqasidan ajralib turadi. Ushbu musiqa ijodiyotida xalqimizning o'tmish an'analari, boy va teran ma'nolarga asoslangan tarixi gavdalangan. Ularning har bir namunasi tarixdan bir sadodir. Binobarin, ularni qanchalik o'rganmaylik, sirlaridan qanchalik voqif bo'lmaylik, shunchalik yangi qirralari ochilib, o'zining benazir xususiyatlarini namoyon etadi.

Ko'rinib turibdiki, mumtoz musiqa san'ati keng tarmoqli va har biri o'zining mazmun mohiyatga ega ekanligi, tuzilish qonuniyatlari va turli ijro uslublaridan iborat. Mumtoz musiqamiz turli qismlarga bo'lingan lekin ular orasida, ashulachilik janri o'zining ko'p tarmoqli va keng mazmun mohiyatga ega ekanligi, tuzilish qonuniyatlari va turli ijro uslublari bilan ajralib turadi. O'zbek mumtoz ashulachiligining eng yirik tarmoqi bu maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonninig uchta hududida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqom yo'llarida yaratilgan, shaklan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan bastakorlar ijodiga mansub ashulalar, Suvoralar va Katta ashulalar mavjuddir. Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovozga ega bo'lish lozimdir. Maqomlar odatda bir necha yillar davomida hamda, ustoz-shogird an'anasiga asoslangan ta'lim asosida o'rgatib kelinmoqda. [4,12b].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Mumtoz musiqa san'ati talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Qo'shiqchilik san'atining nafaqat ijodiy, balki tarbiyaviy jihatlari ham muhim. Oliy ta'lim musiqa ta'limi yo'nalishlarida mumtoz qo'shiqchilikni o'rganish orqali talabalar nafaqat vokal va musiqa bilimlarini chuqurlashtiradilar, balki pedagogik madaniyati, darslarni o'tish metodikasi, pedaogik mahorati kabi muhim kasbiy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Milliy musiqa merosining yosh avlod tarbiyasidagi roli, ularni o'quvchilarga o'rgatish uchun talabalarning kasbiy tayyorgarligi muhokama qilindi. Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning milliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish va an'anaviy ijrochilik usullarini zamonaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashtirish kasbiy tayyorgarlikning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, milliy mumtoz qo'shiqchilikning notalar tizimi, ohang va uslub xususiyatlari, ijro texnikasi hamda ularning kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan bog'liqligi yuzasidan ham talabalar muhim kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Amaliy mashg'ulotlar va eksperimentlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy qo'shiqchilik elementlarini kasbiy tayyorgarlik jarayoniga joriy etish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda pedagoglik madaniyatini shakllantirishga ham yordam beradi.

Milliy mumtoz qo'shiqchilikni kasbiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Ijro mahoratini rivojlantirish – talabalar an'anaviy ijrochilik san'atini o'zlashtirish orqali vokal, nafas nazorati, talaffuz va ifoda imkoniyatlarini yaxshilaydi.
2. San'atga estetik yondashuv shakllanishi – Milliy musiqa merosi orqali talabalar san'atning ichki mazmunini tushunishadi, bu esa ularning badiiy tafakkurini rivojlantiradi.
3. Kasbiy ko'nikmalarni oshirish – Qo'shiqchilik san'ati orqali talabalar musiqa pedagogikasi, sahna harakati va repertuar tanlash kabi kasbiy jihatlarni mukammal egallaydi.
4. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish – Talabalar o'z ijodiy uslubini shakllantirib, yangi talqinlarni izlashga intiladi.
5. Madaniy merosga hurmat hissini kuchaytirish – Milliy mumtoz qo'shiqchilik yosh avlodning milliy madaniyat va qadriyatlarga bo'lgan e'tiborini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy mumtoz qo'shiqchilik talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu san'at turi nafaqat vokal mahoratini oshirish, balki sahnaviy madaniyat, badiiy ifodalash, ijodiy tafakkur va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Mumtoz qo'shiqchilik orqali talabalarda milliy san'atga bo'lgan qiziqish va hurmat hissi ortib, ularning ijodiy izlanishlari rag'batlantiriladi. An'anaviy musiqa usullarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish esa talabalarning o'z kasbini puxta egallashiga, mustaqil ijod qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu esa kelgusida ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatini samarali teshkil etish imkonini beradi. Shu boisdan, milliy mumtoz qo'shiqchilik elementlarini kasbiy ta'lim jarayoniga kengroq joriy etish zarur. Bu nafaqat bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijrochilik mahoratini oshirish, balki milliy musiqa merosini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 17.11.2017 yil PQ-3391-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 02.02.2022 yil PQ-112-son qarori.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-4

3. R.S.Abdullayev. O‘zbek mumtoz musiqasi —T.: Yangi nashr, 2008-y.
4. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. —T.:
Fan va texnologiya 2018, 204 bet**.**
5. I.Qudratov. An’anaviy xonandalik. Darslik Samarqand 2022-y
6. M.Mirabdullayev. An’anaviy xonandalik, Namangan, 2022-yil